

TALABALARNING KASBIY-IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Jurayev Vohidjon Muhammedovich

Qo'qon DU, Psixologiya kafedrası dotsenti (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish zarurati va omillarining mavjud holati hamda zamonaviy samarali rivojlantirishning zarur shart-sharoitlari va mazkur jarayonda oliy ta'lim muassasalari talabalariga yo'naltirilgan ta'limning imkoniyatlarini aniqlash samda foydalanishning dolzarb masalalari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: qobiliyat, kasbiy, umumiy kasbiy tushunshalar, kasbiy-ijodiy qobiliyat, kommunikativ, percheptiv, subyekt-subyekt munosabat, iqtidorlarni shakllantirish.

Kirish. So'nggi yillarda oliy ta'lim jarayonida rivojlantiruvchi, muammoli, hamkorlikdagi, dasturli, blok-modulli, shaxsgayo'naltirilgan, o'yinli va axborot texnologiyalar keng qo'llab kelinmoqda. Har qanday ta'lim texnologiyasi uzluksiz ta'limning qaysi bo'g'inida qo'llanmasin, uning markazida ta'lim oluvchi shaxsi va uning qiziqishlari, ehtiyojlari ko'zda tutilishi kerak. Shuningdek, intellekt va ijodiy qobiliyatni rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari tizimlashtirildi. Ushbu texnologiyalarning maqsadi talabalarda kasbiy salohiyat va pedagogik tayyorgarlikni shakllantirish, kelajak faoliyati haqidagi tasavvurlarni mustahkamlash, o'z-o'zini rivojlantirish hamda shaxsiy sifatlarini tarbiyalashdan iborat.

Respublikamiz oliy ta'lim muassasalari talabalarining kreativ salotsiyatini oshirish, kasbiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish, o'quv reja, dastur va adabijtlar yaratish tizimini yanada takomillashtirishning xuquqiy me'jriy asoslari yaratildi, ta'lim tizimini moddiy texnik bazasi rivojlantirildi. Oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayjrlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namojn etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi ushun zarur shart-sharoit yaratish kabi vazifalar belgilangan. Bunda talabalarda kasbiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda kognitiv-informatsion, shaxsiy, madaniyat, kompetenchiyaviy paradigmalardan foydalanish, fqitish sifati diagnostikasini amalga oshirish, tanqidiy fikrlash va rivojlantiruvshi ta'lim texnologiyalarini loyitsalashtirish, zamonaviy mutaxassislarni tayjrlashda oliy ta'lim va ishlab shiqarishdagi sinergetik integrachiyani amalga oshirishsharoitlari kengayadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Talabalarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirish oliy ta'lim jarayonidagi dolzarb masala sanaladi. Talabalarni kutilmagan pedagogik vaziyatlarda bilim va ko'nikmalarni qo'llay olishga kasbiy va kundalik masalalarni hal qilishga tayyorlash





oliy ta'lim jaranidagi asosiy vazifalardan biridir. Talabada pedagogik vaziyatlarda eng maqbul usulni tanlay olish ko'nikmasini shakllantirish orqali uning ijodiy rivojlanishiga erishiladi. “Ijodkorlik” va “Ijodiy qobiliyat” tushunchalari o'rtasidagi munosabat, shuningdek talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish borasida qator olimlar izlanish olib borgan. Qadimgi yunon olimlari Platon, Aristotel, Avgustin ijodiylik tushunchasini tadqiq etgan. Shuningdek, J.Bruno, B.Spinoza, I.Kant, S.Rubinshteyn, G.Uolles va boshqalarning asarlarida ham o'z aksini topgan.

Turli davrlarning vakillari ijodkorlikni falsafiy kategoriya sifatida ifodalagan. P.K.Engelmeer “ijod nazariyasi”, N.A.Berdyayev “erkinlik falsafasi” va “yaratilish ma'nosi, A. Libiyer “ijod falsafasi” va boshqalar.

D.B.Elkoninning ta'kidlashicha, ijod o'zaro bog'liq qobiliyatlarning bir butun tizimi elementlarni: tasavvur, assotsiativlik, fantaziya, xayolparastlikni o'zida mujassamlashtirgan qobiliyatdir. Shaxsiy faoliyatning eng yuqori shakli sifatida ijod uzoq tayyorgarlik, donolik, ijtimoiy intellektning yuqori darajada bo'lishini taqozo qiladi.

G.Gegel dunyo ijodiy faoliyat umumiy sxemasini “mutloq g'oya” deb atab, birinchi marta turli faoliyat asosini rivojlanish asosiga qarama –qarshi ekanligini ko'rsatgan edi.

Ijodkorlikning asosiy qirralari B.C.Bibler, J.Bruner, A.V.Brushlinskoy, L.S.Vygotskiy, I.Ya.Galperin, I.P.Gilford, V.V.Davıdov, G. Klyaus, Yu.N.Kulyutkin, A.N.Leontyev, A.M.Matyushkin, J.Piaje, Ya.A.Ponomarev, K.Popper, S.L.Rubinshteyn kabi mashhur faylasuflarning asarlarida keltirilgan.

O.V.Afanasyev va V.V.Zotovlarning asarlarida ijodkorlik murakkab, ko'p qirrali, ijtimoiy-ma'naviy xodisa sifatida ko'rilgan. M.S. Kagan, B.M.Kedrov, V.F.Ovchinnikov va boshqalar asarlarida ijodkorlik, uning tuzilishi, va shaxs rivojlanishida ijodkorlik ta'siri o'rganilgan.

M.G.Yaroshevskiy ijodkorlik – yangilik yaratishdir deb ta'kidlab o'tgan edi. Uni shunday tushunish kerakki, bunda subyektning tasavvurlari yangilanadi va hulq atvori, u yaratgan va in'om etayotgan mahsulotlari ham yaxshilanadi». O'xshash ta'rif va belgilarni uyoki bu shaklda boshqa ko'plab ijodkorlar faoliyatlarida ham kuzatish mumkin. Masalan, S.L.Rubinshteynning ta'kidlashicha, ijodkorlik qandaydir yangilik yaratuvchi faoliyatdir. Yangilik olib kirish ijodkor yuksalishiga sabab bo'ladi. Shu bilan birga, fan va madaniyat taraqqiyoti tarixida ham o'z izini qoldiradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ijodkorlik “qayta shakllantirish” – mavjud shakl unsurlari yordamida yangi shakl yaratish demakdir. “Qayta shakllantirish” ijodkorligi o'z ichiga oldindan ma'lum bo'lgan shaklga o'xshagan yangi shaklni kashf etishdir.

Ijodkorlik “bir shakldan ikkinchi shaklga o'tkazish” – bu jarayonda qoidalarning yangi qolipi, chizmasi, ma'lum tuzilmalarning yangi turi yuzaga keladi. Yangi yaratilgan shakllar eski shakllarning yangicha talqini bo'lmaydi. Ijodkor shaxs qoidalar yaratilishi bilanoq, ularga suyanganda, yangi qoidalar yaratish ustida ish boshlaydi. Undan so'ng faoliyat shakllarini ochish, oldin hech qachon qo'llanilmagan shakllarni kashf etish uchun bosh qotiradi.





Pedagogikada ijodkorlik nazariyasining asoslarini ishlab chiqish, faoliyat turlarida ijodkorlik jarayonlarining qonuniyatlarini tadqiq qilishda psixologiya fani beqiyos ahamiyat kasb etadi. Jumladan, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontyev, S.L.Rubinshteyn, B.M.Teplov kabi psixolog olimlarning ishlarida ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish va ijodiy fikrlash muammolari chuqur tadqiq qilingan». Insonning ijodkorlik qobiliyati shaxs sifati hisoblanib, psixolog olimlarning fikriga ko'ra u to'rtta guruhga ajratiladi:

- intellektual sifatlari: dunyoqarash, eruditsiya, fikrlashning ijodiy xususiyatlari (chuqurligi, kengligi, tanqidiyligi hajmliligi, nomantiquiy fikrlay olish);
- mahsullik sifatlari: egallangan bilimlar hamda metodlarni sintezlay olish ko'nikmasi, tadqiqotlarni amalga oshirish metodologiyasini egallanganlik;
- irodaviylik sifatlari: o'z faoliyatini rejalashtirish va sharoitga moslashtirib borish, o'z-o'zini nazorat qila olish, g'oyalarni rivojlantirib, aniq natijaga yetkaza olish;
- hissiy-ijodiy sifatlari: intuitsiya, tasavvur, fantaziya».

Pedagogikada innovatsion jondashuvni joriy etishda ijodkorlik faoliyatining ma'naviy, didaktik, texnologik, tashkilotshilik kabi turlaridan keng foydalanish mumkin.

Ma'naviy ijodkorlik – o'qituvchi va o'quvchilar orasida ma'naviy- axloqiy sotsada yangi sifatli natija beruvshi takrorlanmas, o'ziga xos yondashuvga asoslangan faoliyat turidir.

Didaktik ijodkorlik – o'quv materialini tanlash, loyiqalash xamda fikuvshilar lashtirishining yangi yfnalishlarini ishlab shiqishga asoslangan faoliyat turidir.

Texnologik ijodkorlik – yuqori natijalarga erishish imkonini beruvshi yangi tizimlar, jarajnlr va vaziyatlarni izlash samda yaratish bilan bog'liq faoliyat turi bo'lib, u o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini butunlay qamrab oluvshi ijodkorlikning eng murakkab turi hisoblanadi. Ushbu ijodkorlik turining o'ziga xosligi yangilik elementlarini aniq texnologiyaga o'tkazish, uning samaradorligini tubdan o'zgartirishga qaratilganligi bilan izohlanadi.

Tashkilotshilik ijodkorligi – rejalashtirish, nazorat, resurslarini taqsimlash va safarbar qilish, tashqi muxit bilan aloqa, o'quvchilar va o'qituvchi orasidagi bog'lanishning yangi usullarini yaratishni tashkil qilish va boshqarishdagi ijodkorlikdir.

Sh.Sharipov tomonidan ijodkorlik tajribasi asosida kasbiy ijodkorlikning quyidagi bosqishlarda shakllantirish ta'kidlab o'tilgan:

- Dastlabki (o'quv dasturidagi ko'rsatilgan ish-xarakat usullarini bajarish davomida shakllantiriladi; namuna tariqasida, taxminiy harakatlar asosida: ko'nikmani bajarish to'g'risida axborot talab etiladi).
- Analitik (harakatlar alohida amalga oshiriladi, amalga oshiriladigan harakatlarning xar tomonlama xissiy taxlili o'tkaziladi).
- Sintetik (dastlab alotsida amalga oshirilgan sarakatlar umumlashirilgan xolatda takrorlanadi va xarakatlarning umumiy obrazi xosil qilinadi).





➤ Avtomatlashtirish (ortiqsha sarakatlar bartaraf etiladi, diqqat- e'tibor faoliyat jarayonidan natijaga ko'chadi).

Kasbga yaroqlilik - mazkur kishining ushbu kasb bo'yisha mehnat vazifalarini bajarishi ushun yaroqli yoki yaroqsizligini qayd qilishdangina iborat emas, albatta. Kasbga yaroqlilikni boshqa jihaatdan ham:

1) odam o'zi tanlagan kasbga yaroqlimi yoki yo'qligi;

3) uni o'qitish masalasiga qanday qilib bir munsha oqilona yondashish, ya'ni unda kasbga yaroqlilikni qanday qilib g'oyat maqsadga muvofiq tarzda shakllantirish, tarbiyalash va rivojlantirish mumkinligi jihatidan ham ko'rib shiqish kerak.

Mutaxassis sifatida kamol topish ushun qator masalalarga e'tibor qaratish zarur:

- kasbni ongli ravishda tanlash;
- kasb egallash ushun aniq maqsad qo'yish;
- kasb to'g'risidagi tassavvurlarning real hayotdan uzoq emasligi;
- egallanadigan kasbning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda amaliy faoliyatda duch kelinadigan qiyinchiliklar haqida tassavvur qila bilish;
- kasbiy motivlarni chet olimlar ta'sirida emas, shaxs ehtiyojidan kelib shiqqan holda shakllantirish;
- kasbning ijtimoiy nufuzi va qadr-qimmatini yaxshi bilish;
- mutaxassis sifatida kamol topish uzoq vaqtni talab etishini anglash va b.q.

XULOSA

Albatta yuqorida keltirilgan fikrlarni amalga oshirishda talabaning qiziqishini e'tiborga olish, uning ijodkorlik doirasidan chiqib ketmaslik muhim o'rin tutadi. Chunki talabaga uning imkoniyatidan ortiq vazifani berishyoki g'oyalarini hisobga olmaslik unda kreativ fikrlash qobiliyatining “bo'g'ilishi”ga va shablon asosida fikrlaydigan bo'lib qolishiga sabab bo'ladi. Talabaning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishga ilmiyyondashish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Спирин Л.Ф. Профессиограмма общепедагогическая. – М.: 1997 – 34с.
2. Шарипов Ш.С. Ўқувчилар касбий ижодкорлиги узвийлигини таъминлашнинг назарияси ва амалижти.: Автореф. дис. ... пед. фан. док. – Тошкент.: ТДПУ, 2012. – 27 б.
3. Шарипов Ш.С., Давлатов К., Насриддинова Г.С. Касбга йфналтиришнинг илмийпедагогик асослари. Ўқув қўлланма. –Тошкент, 2007. – 146 б.
4. Қурбонов Б., Мухлибев М., Қурбонова Г. Мехнат таълимини ўқитиш методикаси, касб танлашга йўналтириш фанидан мехнат таълими йўналиши талабалари учун ўқув-қўлланма. – Гулистон, 2013. – 295 б.
5. Авазбоев А.И. Ўқув предметлари мазмунини интеграциялаш асосида меснат ва касб таълими ўқитувчиларини тайёрлашни такомиллаштириш: Дис. ... пед. фан. ном. – Т., 2001. – 150 б.





6. Муслимов Н.А., Абдуллаева К.М., Куйсинов О.А., Гаипова Н.С., Каримова Н.Н., Кодиров М. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси. – Т.: Фан ва технология, 2013. – 128 б.
7. Акбаров Б.А. Умумий фрта таълим мактаби ўқувчиларида касбий тафаккурни шакллантиришнинг педагогик тизими.: Автореф. дис. ... пед. фан. бфйиша фал. док. – Наманган, 2020. – 52 б.
8. Алламбергенов А.Ж. Умумий фрта таълим мактаби ўқувчиларида касбийтехнологик компетентликни ривожлантириш.: Автореф. дис. ... пед. фан. бфйиша фал. док. – Нукус, 2020. – 52 б.
9. Ғозиев Э. Умумий психология. 1-китоб. Тошент-2002.
10. Ғозиев Э. Умумий психология. Психология мутахассислиги учун дарслик. Тошкент 2020. “Asian Book House”
11. Қурбонова Л.А. Ижодий тафаккурнинг фалсафий методологик таҳлили: Дис. фал. фан. ном. – Тошкент, 2007. – 170 б.
12. Махмудова Д.М. Талабалар мустақил ижодий фаолиятини ривожлантириш жараёнида муҳим масалалардан фойдаланиш: Дис. ... пед. фан. бўйича фал. док. – Тошкент, 2018. – 156 б

